



OLIJ TA'LIM MUASSASALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGI VA HUDUDIY FARQLAR: KLASTERLI YONDASHUV

Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li

PhD Ma'mun universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18387825>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 24-yanvar 2026 yil
Nashr qilindi: 27-yanvar 2026 yil

KEYWORDS

Oliy ta'lim muassasalari,
moliyaviy barqarorlik, hududiy
farqlar, klaster tahlili, moliyaviy
ko'rsatkichlar, ta'limni
moliyalashtirish, hududiy
rivojlanish.

ABSTRACT

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi va hududiy farqlari klasterli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Maqolada OTMlarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari asosida ularni o'xshash xususiyatlariga ko'ra guruhlash orqali moliyaviy barqarorlik darajalari aniqlanadi. Olingan natijalar hududlar kesimida moliyalashtirishdagi nomutanosibliklarni aniqlash hamda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi

Iqtisodiy nuqtai nazaridan oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy barqarorlik deganda ushbu muassasalarning uzoq muddatli moliyaviy sog'lom saqlash, moliyaviy majburiyatlarini bajarish va akademik missiyalarini samarali qo'llab-quvvatlash qobiliyati tushuniladi. Bu esa resurslarni samarali boshqarish, daromad oqimlarini yaratish, xarajatlarni nazorat qilish, moliyaviy hisobotlarda shaffoflik va javobgarlikni ta'minlashni o'z ichiga oladi. To'g'ri moliyaviy boshqaruv oliy ta'lim muassasalarining tobora murakkab va raqobat muhitida hayotiyliigi va muvaffaqiyati uchun juda muhimdir.

Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy barqarorlik – bu ichki imkoniyatlar hisobiga moliyaviy manbalarni ko'paytirish va istiqbolda mazkur manbalardan muntazam daromad olishni ta'minlashdir¹.

So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash borasida bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Ovchinnikova, O., Kokuytseva, T., Butrova, E.²lar fikricha milliy iqtisodiyotning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini ta'minlash mamlakatda raqamli iqtisodiyot talab qiladigan yuqori malakali kadrlarga ega bo'lgan taqdirdagina mumkin bo'ladi. Bunda inson resurslarini tayyorlash universitet professor-

¹ Lucianelli, G., Citro, F. (2017). Financial Conditions and Financial Sustainability in Higher Education : A Literature Review. In: Rodríguez Bolívar, M. (eds) Financial Sustainability in Public Administration. Palgrave Macmillan, Cham., pp. 23-53, https://doi.org/10.1007/978-3-319-57962-7_2

² Ovchinnikova, O., Kokuytseva, T., Butrova, E. (2022). Financial Stability of University as Factor Improving the Competitive Ability of the National Economy. In: Solovev, D.B., Savaley, V.V., Bekker, A.T., Petukhov, V.I. (eds) Proceeding of the International Science and Technology Conference "FarEastCon 2021". Smart Innovation, Systems and Technologies, vol 275. Springer, Singapore, pp. 583-589, https://doi.org/10.1007/978-981-16-8829-4_56

o'qituvchilarining malakasiga, zarur infratuzilamaning mavjudligiga, shuningdek, dunyo miqyosidagi tadqiqot va ishlanmalarga bog'liq. Universitet o'z mablag'laridan mustaqil foydalana olsa va byudjet doirasida tegishli proporsiyalarni belgilay olsagina ta'lim sifatini ta'minlash mumkin.

[Marcel J. Dumestre](#)³ AQShning ko'plab universitetlari nima uchun moliyaviy barqarorsizlikka duch kelayotganini o'rganadi va institutsional o'zgarishlarga olib keladigan strategik fikrlash metodologiyasini taqdim etadi, shuningdek, ta'limga bog'liq bo'lgan muassasalar XXI asrda o'zlarini yuqori moliyaviy barqaror universitetlarga aylantirish usullarini taklif qiladi.

[Lukasz Swiatek](#)⁴ oliy ta'lim muassasalariga barqarorlikni ta'minlashga yordam berishi mumkin bo'lgan "jalb qilishga yo'naltirilganlik (engagement orientation)" usullarini ko'rib chiqadi. Olim fikricha "jalb qilishga yo'naltirilganlik (engagement orientation)" tashkilotni moliyalashtirishni manfaatdor tomonlarning o'zaro ta'siridan kelib chiqadigan keng qo'llab-quvvatlanadigan faoliyatiga yo'naltirishga imkon beradi. Shuningdek olimning takidlashicha, "engagement orientation" yo'nalishi OTMga barqarorlikni muvaffaqiyatli rivojlantirishga yordam beradi va moliyalashtirishni keng qo'llab-quvvatlanadigan tashabbuslarga yo'naltirishga imkon beradi, ammo mazkur yo'nalish ayrim cheklovlarga duch kelishi mumkin.

Moliyaviy barqarorlik OTMlar uchun, ayniqsa noaniqlik va o'zgarishlar sharoitida juda muhim. Bu universitetning doimiy barqarorlik salohiyatini ta'minlagan holda ijobiy moliyaviy holatini saqlab qolish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tadqiqotchilar tomonidan OTMlar moliyaviy barqarorligini hisoblashda turli ko'rsatkichlardan foydalanishni taklif etishadi. Masalan, [Alshubiri](#)⁵ Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) mamlakatlari oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari sifatida oliy ta'lim xarajati, universitetlarda umr ko'rish davomiyligi va oliy o'quv yurtlariga yalpi qamrab olish koeffitsienti dan foydalangan, hamda bu orqali oliy ta'limning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga ta'sirini o'rgangan.

[Mohamed va Muturi](#)⁶ Somalida Puntlend shtatidagi universitetlarda daromad keltiruvchi birliklarning moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi o'zgaruvchilarni o'rganib, bozor tadqiqotlari, boshqaruv va moliyaviy rejalashtirishni yaxshilashni tavsiya qiladi.

[Chirica va Puskas](#)⁷ davlat subsidiyalariga tayanadigan davlat OTMlari uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish muammolarini muhokama qildilar. Mualliflar o'qish to'lovlari, tadqiqot grantlari, ijaralar, xayr-ehsonlar, vaqflar va turar joy to'lovlaridan tushgan daromadlarni ko'rib chiqadilar.

³ Dumestre, M.J. (2016). Introduction: An Uncertain Future. In: Financial Sustainability in US Higher Education. Palgrave Macmillan, New York, pp. 1-6, https://doi.org/10.1057/978-1-349-94983-0_1

⁴ Swiatek, L. (2023). The Engagement Orientation and Its Limits in Nurturing Sustainability in Higher Education. In: Walker, T., Tarabieh, K., Goubran, S., Machnik-Kekesi, G. (eds) Sustainable Practices in Higher Education. Palgrave Macmillan, Cham., pp.221-238, https://doi.org/10.1007/978-3-031-27807-5_11

⁵ [Alshubiri, F.N.](#) (2021), "Analysis of financial sustainability indicators of higher education institutions on foreign direct investment: Empirical evidence in OECD countries", [International Journal of Sustainability in Higher Education](#), Vol. 22 No. 1, pp. 77-99. <https://doi.org/10.1108/IJSHE-10-2019-0306>

⁶ Mohamed, M. H., & Muturi, W. (2017). Factors affecting financial performance of income generating units among universities in Puntland State of Somalia: The case Puntland State University (PSU). *Int. J. Econ. Commer. Manag.* 5, 287-318.

⁷ Chirica, O., & Puskas, B. (2018). The diversification of income sources in the higher education public institutions budgets. *The Audit Financiar Journal*, 16(149), 148-148.

Afriyie⁸ barqaror o'sish sur'ati va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni, jamoatchilik bilan aloqalar, tashkiliy madaniyat, investitsiya portfellari va yetakchilikni hisobga olgan holda o'rganadi.

Yuqoridagi tadqiqotlar natijalariga tayangan holda biz mintaqamizdagi jami 8 ta davlat va nodavlat OTMLar uchun "moliyaviy barqarorlik" indeksini ishlab chiqdik. Mazkur indeksni ishlab chiqishda OTMLarining 2021-2024 davr oralig'idagi moliyaviy ko'rsatkichlaridan foydalandik. Biz asosan "moliyaviy barqarorlik" indeksini ishlab chiqishda ikkita ko'rsatkichga tayandik. Bular quyidagilar:

1. Majburiyatlarni qoplay bilish darajasi (MQD);
2. Rentabellik darajasi (RD).

Majburiyatlarni qoplay bilish darajasi (MQD) quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$MQD = \frac{YD}{UX} \quad (2.3.1)$$

bu yerda: MQD – majburiyatlarni qoplay bilish darajasi;

YD – yalpi daromad;

UX – umumiy xarajatlar.

Rentabellik darajasi (RD) ni esa quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$RD = \frac{YD-UX}{YD} \quad (2.3.2)$$

bu yerda: RD – rentabellik darajasi;

YD – yalpi daromad;

UX – umumiy xarajatlar.

Keyingi bosqichda yuqoridagi (2.3.1) va (2.3.2) formulalardan foydalangan holda "moliyaviy barqarorlik (MBI)" indeksini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$MBI = (MQD)^{\omega_1} * (RD)^{\omega_2} \quad (2.3.3)$$

bu yerda: MBI – moliyaviy barqarorlik indeksi;

MQD – majburiyatlarni qoplay bilish darajasi;

RD – rentabellik darajasi;

ω_1 – MQD ko'rsatkichining vazni;

ω_2 – RD ko'rsatkichining vazni.

Tadqiqot ishimizda mintaqamizda o'rganilayotgan to'plam sifatida tanlab olingan 8 ta davlat va nodavlat OTMLarning bizga zarur moliyaviy ko'rsatkichlarni normallashtirib olamiz. Buning uchun Normallashtirishni "Z-ball normallashtirish (Z-score Normalization)" usulidan foydalanamiz. Normallashtirishdan asosiy maqsad indeksni hisoblashda qaysidir ko'rsatkichlar bo'yicha oldinda yoki qaysidir ko'rsatkichlar bo'yicha esa pastda bo'lgan OTMLar o'rtasida keskin farqlarni keltirib chiqarmasdan balki OTMLar moliyaviy barqarorlik darajasini obyektiv baholashga xizmat qiladi. Z-ball normallashtirish (Z-score Normalization) formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$Z = \frac{X-\mu}{\sigma} \quad (2.3.4)$$

bu yerda: Z – ko'rsatkichning normallashtirilgan qiymati;

X – ko'rsatkichning haqiqiy qiymati;

μ – o'rganilayotgan to'plam bo'yicha ko'rsatkichning o'rtacha qiymati;

⁸ Afriyie, A. O. (2015). Financial sustainability factors of higher education institutions: a predictive model. International Journal of Education Learning and Development, 2(3), 17-38.

σ – o'rganilayotgan to'plam bo'yicha ko'rsatkichning standart xatoligi

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi ularning uzoq muddatli rivojlanishi, ta'lim sifati va akademik missiyasini samarali amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Moliyaviy barqarorlik nafaqat moliyaviy majburiyatlarni bajarish qobiliyatini, balki resurslardan oqilona foydalanish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda raqobatbardosh muhitda barqaror faoliyat yuritishni ham o'z ichiga oladi. Xalqaro va mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni tasdiqlaydiki, OTMLarda moliyaviy mustaqillik va samarali moliyaviy boshqaruv ta'lim sifati, ilmiy faoliyat va innovatsion salohiyat bilan chambarchas bog'liqdir.

Mazkur tadqiqotda mintaqadagi davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini baholash maqsadida "moliyaviy barqarorlik indeksi" ishlab chiqildi va u majburiyatlarni qoplay bilish darajasi hamda rentabellik ko'rsatkichlari asosida hisoblandi. Z-ball normallashtirish usulidan foydalanish OTMLar o'rtasidagi keskin tafovutlarni yumshatgan holda, ularning moliyaviy holatini obyektiv baholash imkonini berdi. Natijalar moliyaviy barqarorlik darajasi OTMLar kesimida sezilarli farqlanishini ko'rsatib, bu holat moliyalashtirish manbalari, boshqaruv samaradorligi va ichki imkoniyatlardan foydalanish darajasi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, tadqiqot xulosalari oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash strategik boshqaruv, daromad manbalarini kengaytirish va moliyaviy intizomni kuchaytirish orqali amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatadi. Ishlab chiqilgan moliyaviy barqarorlik indeksi mintaqaviy ta'lim siyosatini shakllantirish, OTMLar moliyaviy holatini monitoring qilish va hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish bo'yicha amaliy qarorlar qabul qilish uchun muhim ilmiy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ketels C. Cluster policy: A guide to the state of the debate. // The Oxford Handbook of Economic Geography. — Oxford: Oxford University Press, 2012.
2. Everitt B.S., Landau S., Leese M., Stahl D. Cluster Analysis. — 5th ed. — Chichester: Wiley, 2011.
3. Hair J.F., Black W.C., Babin B.J., Anderson R.E. Multivariate Data Analysis. — 7th ed. — New Jersey: Pearson Education, 2014.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Oliy ta'lim muassasalari moliyaviy faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar. — Toshkent, 2019–2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Hududiy rivojlanish va ta'limni moliyalashtirish bo'yicha hisobotlar. — Toshkent, 2020–2024..